

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.Fil.76.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IKRAMOVA MUHTARAM BOTIRJON QIZI

**MAQSUD SHAYXZODA DRAMALARINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Ikramova Muhtaram Botirjon qizi Maqsud Shayxzoda dramalarining lingvopoetik xususiyatlari.....	3
Ikramova Muhtaram Botirjon kizi Linguopoetic features of Maksud Shaykhzoda.....	28
Икрамова Мухтарам Ботирджон кизи Лингвопоэтические особенности драм Максуда Шейхзаде.....	51
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	58

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/04.06.2021.Fil.76.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IKRAMOVA MUHTARAM BOTIRJON QIZI

**MAQSUD SHAYXZODA DRAMALARINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4773 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich
filologiya fanlari doktori, professor
Xojaliyev Ismoil Tojiboyevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.202.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

Z.Y.Sadikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O'.Darvishov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

F.I.Karimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc),
dotsent

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda til tadqiqiga antropotsentrik yondashuv asosida kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya va lingvopoetika kabi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, matn va uning turlari, jumladan, badiiy matnlarning lingvopoetik jihatlarini o‘rganishga e‘tibor ortdi. Matn tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan bo‘lgan lingvopoetikaga doir tadqiqotlar adabiy tur janrlarining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini, ijodkorlarning tilning fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik va uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini, adabiy til, xususan, badiiy uslub rivoji hamda takomiliga qo‘shgan hissasi kabi masalalarni o‘rganishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnlar lingvopoetika sohasining muhim obyekti sanaladi, chunki har qanday badiiy matn olamning lisoniy, badiiy manzarasi, badiiy nutq, uning nasriy va she‘riy shakllarining lisoniy o‘ziga xosligi, poetik aktuallashgan til birliklari va vositalarining imkoniyatlari, yozuvchi va shoirlarning uslubiy mahorati yuzasidan xulosalar chiqarishda muhim manba hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida lingvistika fanini rivojlantirish, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirish orqali yoshlarni ona tili va ona vatanga muhabbat, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifaga aylandi. Mamlakatimizda shu bois o‘zbek tilini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari doirasida “Oliy ta‘lim tizimida o‘zbek tili ilmiy maktablarining zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish”¹ kabi vazifalar belgilangan. O‘zbek lingvopoetikasini rivojlantirish va takomillashtirish ham ana shunday vazifalardandir. Chindan ham ma‘naviyatimizning asosi bo‘lgan milliy tilimizni yanada rivojlantirish, xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy-ma‘naviy qadriyatlarini tiklash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma‘naviy merosni o‘rganish bugungi kun uchun dolzarbdir.

O‘zbek tilshunosligida muayyan ijodkorlar asarlarining tili va uslubining lingvopoetik jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim ishlar mavjud bo‘lsa-da, haligacha Maqsud Shayxzodaning dramalari lisoniy jihatidan maxsus o‘rganilmagan.

O‘zbek adabiyoti va adabiy tilimiz rivojida Maqsud Shayxzodaning shayxona ijod yo‘li alohida o‘ringa ega. Adib Shayxzodaning turli mavzularda yaratilgan she‘r va dramalarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi yorqin aks etgan. Shu nuqtayi nazardan Maqsud Shayxzoda dramalarining lingvopoetik tadqiqi ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda 177-1-son yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrda 311-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat tili haqida”gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6084-сонли Фармони // Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. 06/20/6084/1398.

Qonunini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qarori talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risida", shuningdek, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot va strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur jarayonga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma'lum darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda matn va uning tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi. O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab o'zbek tilshunosligida ham lingvopoetika mustaqil yo'nalish sifatida rivojlanib, tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, N.Mahmudov, I.K.Mirzayev, S.Karimov, G.Imomova, G.Muhammadjonova, M.Yaqubbekova, D.Shadiyeva, G.Jumanazarova, D.Jamoliddinova, M.Yuldashev, R.Normurodov, Sh.Toshxo'jayeva, M.Qurbonova, G.Jumanazarova, O.Tursunovalarning tadqiqotlarida badiiy matnlarning lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etildi, dissertatsiya va monografiyalari yaratildi².

² Махмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 9. – Б. 48-50; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – №4. – В.30-38; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992. – 50 с.; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадийи услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1993. – 56 б.; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадийи нутқнинг ўрни: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 24 б.; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 25 б.; Яқуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 257 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.; Жуманазарова Г. "Ширин билан Шакар" достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варианти асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Жамолиддинова Д. Бадийи нутқда парантез бирликларининг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 137 б.; Юлдашев М. Бадийи матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.; Тошхўжаева Ш. Ғ. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2017. – 34 б.; Курбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 23 б.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостатистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 54 б.

Maqsud Shayxzodaning ijodiy, adabiy faoliyati M.Zokirov, tarjimonlik mahorati K.Tojiyev tomonidan monografik tadqiq etilgan³. Jumladan, Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiy faoliyati qardosh ozarbayjon, turk adabiyotshunos va tilshunoslari tomonidan o‘rganilgan⁴, ko‘plab she‘rlari lingvopoetik tahlil qilingan. Dramatik tur janrlari misolida Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” dramalari adabiy jarayonda munosib o‘rganilgan⁵, ammo lingvopoetik jihatdan tadqiq etilmagan. Shuningdek, dramatik asarlarning lingvopoetik tadqiqiga doir monografik tadqiqotlar ham yaratilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek tili onomastikasining antroposentrik tadqiqi” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramalarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dramatik asarlarning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari va lingvopoetik tahlili masalalarini yoritish;

Maqsud Shayxzoda dramalarida tarixiy va milliy koloritni ifodalovchi til birliklarining lingvopoetik tahlilini berish;

dramalardagi antroponimlarning nominatsion va badiiy-uslubiy xususiyatlarini ochib berish;

dramalarda muallifning lisoniy birliklar va uslubiy vositalarni tanlash hamda qo‘llash, okkazonalizmlar yaratish mahoratini lingvopoetik tahlil qilish;

fojialardagi dramatik nutqqa xos dialog va monologlarning lingvopoetik jihatlarini yoritish;

dramalardagi paremiologik, murojaat birliklarining semantik-funksional hamda lingvopoetik tahlili va tavsifini berish.

³Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. Адабий-танкидий очерк. – Тошкент, 1969; Таджиев К. Творчество Мақсуда Шейхзаде – переводчика: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 18 с

⁴Ғафуров И. Лирика ва давр (Мақсуд Шайхзода лирикасининг ғоявий-бадиий хусусиятлари): Филол. фан. ном. ... диссер. – Тошкент, 1972; Шухрат. Мақсуд Шайхзода 60 ёшда // Шарқ юлдузи, 1968 1-сон; Олмос. Шайх амаким // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989, 27 январь; Каримов Н. Фидойилар. – Тошкент: Фан, 1990. – 47 б; Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. – Тошкент, 1969. – 189 б.; Махмудов Н. Сўз шайхининг мўъжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2009. – № 7. – Б.10; Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Тошкент, 1969. – 462 б; Riza Helil. Maksud Şeyxzade (monografiya). В.: Bilik, 1978. – S. 67; Каримов Н. Мақсуд Шайхзода // маърифий-биографик роман. – Тошкент, 2009. – 359 б; Яриев Б. Язык поэзии Мақсуда Шейхзаде: Дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978; Maksud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2020. – 173 b.; Жовлиев Ж. Мақсуд Шайхзода асарлари қўлёзмаларининг матний қиёсий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 86 б.

⁵ Абдусаматов Ҳ. Драматургия ва ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974; Жалилов Б. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. Тошкент: Фан, 1984. – Б. 144; Маматвалиев М. “Жалолiddин Мангуберди” фожиаси тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. – №6. – Б. 8-12; Исломов Т. Ўзбек тарихий драмаси. – Тошкент, 1970. – 110 б.; Имомом Б. Трагедия ва характер. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 176 б; Турсунов Р. Мактабларнинг ихтисослаштирилган XI синфларида фожиа жанрини ўрганиш (Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек” асари мисолида): Педагогика фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс – Тошкент, 1998. – 130 б.

Tadqiqot obyekti sifatida Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojialari olindi.

Tadqiqot predmetini “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojialarida qo‘llangan fonetik-fonologik, leksik-semantik, onomastik, badiiy-stilistik, sintaktik birliklarning lingvopoetik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy, fonopoetik tavsiflash, leksik-semantik, semantik-stilistik, onomastik va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

dramatik asarlar, xususan, tragediyalarning o‘ziga xos janr tabiati bilan bog‘liq lisoniy xususiyatlari va lingvopoetik tadqiq usullari aniqlangan;

Maqsud Shayxzodaning til birliklarining takroriga asoslangan alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans kabi tasviriy vositalardan foydalanish borasidagi shayxona mahorati va bunday vositalarning lingvopoetik jihatlari ochib berilgan;

adibning tarixiy voqelikni yoritish borasidagi dramaturglik mahorati “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalarida faol qo‘llangan o‘xshatish, metafora, epitet, antiteza, ironiya, sarkazm kabi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili yoritilgan;

dramaturgning ritorik so‘roq, ritorik xitob, murojaat birliklari kabi sintaktik vositalarning uslubiy, badiiy imkoniyatlaridan foydalanishdagi individual mahorati va bunday vositalarning semantik-funksional vazifasi hamda lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili lingvopoetikasining taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlari ilmiy asoslangan;

Maqsud Shayxzoda dramalari lingvopoetik tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun zarur ma‘lumot berishi va lingvopoetika bo‘yicha tadqiqotlar yaratishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan;

tilshunoslikning leksikologiya, uslubiyat bo‘limlarini va lingvopoetika sohalarini o‘qitishda amaliy manba vazifasini bajarishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosliligi, lingvopoetikaning tahlil usullardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘zbek tilshunosligi, xususan, lingvopoetikasini dramatik asarlarning lingvopoetik tadqiq etishga doir ilmiy qarashlar, talqinlar bilan boyitishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek lingvopoetikasiga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozishda, oliy o‘quv yurtlarida “Uslubiyat”, “Matn tilshunosligi”, “Badiiy tahlil asoslari” kabi ixtisoslik, “Lingvopoetika” tanlov fanlarini o‘qitishda material vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maqsud Shayxzoda dramalarining lingvopoetik xususiyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

dramatik asarlarda tarixiy va milliy koloritni ifodalovchi til birliklarining lingvopoetik tahliliga oid ma'lumotlardan; dramalar tilida lisoniy birliklarning tanlanishi va qo'llanishi hamda derivatsion okkazonalizmlarning yasash modeli, morfologik tarkibi va qo'llanish xususiyatlariga oid materiallardan; ritorik so'roq, ritorik xitob, murojaat shakli, inversiya, ellipsis, parallelizm kabi sintaktik vositalarning semantik-funksional vazifasiga oid tahlil va xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion grant loyihasida o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori ma'lumotlar bazasini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 23-noyabrdagi 04/1-3351 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, morfologik analizator ma'lumotlar bazasi til birliklarining morfologik, semantik-funksional xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

Maqsud Shayxzodaning dramatik asarlaridagi til birliklarining takroriga asoslangan alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans kabi tasviriy vositalardan foydalanish borasidagi shayxona mahorati va bunday vositalarning lingvopoetik jihatlariga doir talqinlardan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan "OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 11-maydagi 39-01-539-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metod va metodologiyasi muayyan yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" tragediyalarida tarixiy voqelikni yoritish borasidagi dramaturglik mahorati, takrorga asoslangan alliteratsiya, anafora, epifora, rifma (qofiya), assonans hamda o'xshatish, metafora, epitet, antiteza, ironiya, sarkazm kabi tasviriy vositalardan foydalanish borasidagi shayxona uslubiga doir ilmiy qarashlari va xulosalardan 2023-2024-yillarda "O'zbekiston" Milliy teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlari ssenariysini yozishda va mazmunini boyitishda foydalanilgan. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 14-noyabrdagi 26-36-922-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning o'zbek dramaturgiyasi, Maqsud Shayxzodaning betakror dramaturglik mahorati, o'ziga xos shayxona uslubi, "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek" tragediyalari haqidagi tassavur va bilimlari boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, “Maqsud Shayxzoda tragediyalarining izohli lug‘ati”dan iborat. Ishning umumiy hajmi 146 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dramatik asarlarning lingvopoetik tahlili va Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasi**” nomli 1-bobida dramatik asarlarning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari, lingvopoetik tahlili masalalari, Maqsud Shayxzodaning o‘zbek dramaturgiyasi va dramatik uslubi takomilidagi o‘rni yoritilgan.

Hozirgi globallashuv, madaniyatlar uyg‘unlashuvi, fanlar integratsiyasi, jumladan, tilshunoslikning boshqa ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar bilan hamkorligi, aloqasi kuchaygan davrda lingvopoetika sohasi ham jadal rivojlanmoqda, takomillashmoqda. Xorij tilshunosligida Y.Stepanov⁶, L.V.Sherba⁷, R.Yakobson⁸, A.A.Potebnya⁹, V.V.Vinogradov¹⁰, V.M.Jirmunskiy¹¹, V.Y.Zadornova¹², G.O.Vinokur¹³ kabi olimlarning ishlari lingvopoetika sohasini shakllanishi va ilmiy takomiliga zamin yaratdi. Rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari dastlab A.T.Gryaznova, L.V.Krasnikova, A.A.Lipgart kabi olimlar tomonidan o‘rganildi¹⁴.

Sohaning tadqiq usullari va metodologiyasi, nazariy asoslari va ilmiy terminologiyasi B.V.Tomashevskiy¹⁵, L.V.Sherba¹⁶, D.N.Shmelev¹⁷, V.V.Vinogradov¹⁸, G.V.Stepanov¹⁹, O.S.Axmanova²⁰, V.Y.Zadornova²¹,

⁶ Степанов Ю. Французская стилистика. – М.: Высшая школа, 1965. – С.32.

⁷ Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М., 1957. – С.45

⁸ Jakobson R. Linguistik and poetics. Стиль в языке. 1960. Cambridge, MA: MIT Press.P.24.

⁹ Петебня А.А. Эстетика и поэтика Текст. / – М.: Высшая школа, 1976. – С.45.

¹⁰ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М., 1959. – С.20.

¹¹ Жирмунский В.М. История западноевропейской литературы. – М., 1947. – С.27; Жирмунской В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977. – С.19.

¹² Задорнова В. Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М., 1984. – С. 54.

¹³ Винокур Г. О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 44.

¹⁴ Грязнова А.Т. Лингвопоэтический анализ художественного текста: подходы и направления: Монография. – М.: МПГУ, 2018; Красникова Л.В. О специфике лингвопоэтического исследования художественного текста // Мир науки, культуры, образования, 2014. – №3 (46); Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики: учебное пособие. – М.: Диалог-МГУ, 1999. – 165 с.

¹⁵ Томашевский Б.В. Теория литературы (Поэтика). – М., 1925. – 232 с.

¹⁶ Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л.: Ленинградского университета, 1958. – Т. 1. – 182 с.

¹⁷ Шмелев Д.Н. Слова и образ. – М.: Наука, 1964. – 134 с.

¹⁸ Виноградов В.В. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М., 1980. – 360 с. Шу муаллиф. Итоги обсуждения вопросов стилистики. – М., 1986. – С.117-189; К диалектике развития словеснохудожественных форм // Проблемы лингвистической стилистики (тезисы докладов). – М., 1986. – С.29-31. О теории художественной речи. – М., 1971. – 238 с.

A.A.Lipgart²², O.I.Moskalskaya²³ kabi olimlar tomonidan yaratildi. Shunday bo'lsa-da, ilmiy adabiyotlarda *lingvopoetika* termini, sohaning predmeti, obyekt turlicha ta'riflanadi. Bizningcha, V.Y.Zadornovaning ilmiy izlanishlarida lingvopoetika sohasining predmeti, maqsadi va muammolari to'laroq ochib berilgan. Olimaning talqinicha, "Filologiyaning alohida bo'limi bo'lgan lingvopoetikaning predmeti yozuvchining badiiy asardagi g'oyaviy-badiiy maqsadini amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan estetik ta'sirni ta'minlovchi til vositalari majmuyi hisoblanadi"²⁴.

A.A.Lipgart ta'kidlaganidek, "lingvopoetika va u bilan bog'liq hodisalar tadqiqi murakkab vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Bunga sabab mazkur termin orqali ifodalangan tushunchalar ikki xil tadqiqot usullaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ulardan birining maqsadi biror bir asarda qo'llangan muayyan uslubning mavzuviy-stilistik tavsifi ifodalangan umumiy holatni imkon qadar to'liq ko'rsatish bo'lsa, ikkinchisi biror-bir g'oyaviy-badiiy mazmuni yetkazish va muayyan estetik effekt yaratilishida shakliy til unsurlarining rolini aniqlashga yo'naltirilgan badiiy matnni tadqiq qilishdir. Biroq ikkala yondashuvda ham matnning shakliy va mazmuniy tomonlarini bir vaqtda ko'rib chiqish tamoyili yotganligi sababli ularni *lingvopoetika* termini bilan birlashtirish mumkin"²⁵.

XX asr o'rtalaridan rus tilshunosligi ta'sirida o'zbek filologiyasida ham badiiy asar tili masalalari A.G'ulomov²⁶, Sh.Shoabdurahmonov²⁷, C.To'rabekova²⁸, B.Turdaliyev²⁹, Q.Samadov³⁰, A.Y.Aliyev³¹, C.A.Karimov³², M.Yuldoshev³³ kabi olimlar tomonidan lingvistik aspektda tekshirilgan bo'lsa, I.Sultonov³⁴, S.Mamajonov³⁵, O.Sharafiddinov³⁶, N.Shukurov³⁷, Y.Solijonov³⁸ kabi olimlar tomonidan adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.

¹⁹ Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988. – 148 с.

²⁰ Ахманова О.С. О стилистической дифференциации слов // Сб. статей по языкознанию. Проф. МГУ акад. В.В. Виноградову в день его 60-летия. – М., 1958. – С.24-39; Ахманова О.С., Медникова Э. М. Проблемы неидиоматической фразеологии. – М., 1986. – 235 с.

²¹Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ...докт. филол. наук. – М., 1992. – 220 с.

²² Липгарт А.А. О лингвопоэтическом анализе художественного текста // Студенческие научные доклады. Ч. III / Лингвистика. – М., 1992. – С.3-8. Шу муаллиф. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994. – 276 с; Шу муаллиф. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ... док. филол. наук. – М., 1996. – 656 с.; Шу муаллиф. Методы лингвопоэтического исследования. – М., 1997. – 220 с.

²³ Москальская О.И. Грамматика текста. – М.: Высшая школа, 1981. – 183 с.

²⁴ Задорнова В.Я. Лингвопоэтика. Слова в художественном тексте // Язык, сознание, коммуникация / Отв.ред. В.В.Красникс, А.И.Изатов. – М.: МАКС. Прес, 2005. – Вып. 29. – С.160.

²⁵ Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 2006 – С.26.

²⁶ Фуломов А. Бадий адабиётнинг тили ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1941. – №1.

²⁷ Шоабдурахмонов Ш. Ойбек романларининг тили // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1955. – № 10. – Б.106-116.

²⁸ Тўрабекова С. Фафур Фулом поэзиясидаги бадий тасвир воситаларининг баъзи хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960. – № 6. – Б.32-37.

²⁹ Турдалиев Б. Ўзбек адабий тилининг шаклланишида Ҳамза ижодининг роли // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 3. – Б. 21-25.

³⁰ Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981. – 103 б.

³¹ Алиев А.Ў. Ўзбек адабий тили тарихидан материаллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 118 б.

³² Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. док ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 293 б.

³³ Юлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.

³⁴ Султон И. Бадий асарнинг тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1939. – № 5.

³⁵ Мамажонов С. Услуб жилолари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 221 б.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika sohasiga doir ilk tadqiqotlar XX asrning 80-yillarida yuzaga keldi. N.Mahmudovning Oybek nasri, A.Qahhor hikoyalari lingvopoetikasiga³⁹ doir ilmiy maqolalari bu sohaning ilk namunalari edi.

A.A.Lipgart lingvopoetikaning obyektini va usullari hamda metodlarini izohlar ekan, badiiy diskurs yozuvchi ideostilining in’ikosi bo‘lganligi bois til hodisalarining aniq metodologiyasi avvaldan bashorat qilinsa, badiiy uslub bir yoqlamalikka asoslanib qolishini ta’kidlaydi⁴⁰.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasi masalalari M.Yo‘ldoshev tomonidan keng tadqiq etildi. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni qayd etadi: *shakl va mazmun birligi; matn va uning janr xususiyati; makon va zamon birligi; til birliklarining umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqom; badiiy til – umumxalq til – adabiy til tarixi munosabatlari; adabiyotshunoslik – tilshunoslik bilan aloqadorligi; poetik aktuallashtirilgan til vositalarini aniqlash tamoyillari; badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash; intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash*⁴¹.

Dramatik asarlarning lingvopoetik tahlilida yuqoridagi tamoyillarga amal qilgan holda, ularning o‘ziga xos janr xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Sarlavha (biblionim)larning lingvopoetik tahlili. Lingvopoetik tahlilning asarning sarlavhasidan boshlash lozim. Sarlavhaning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, tuzilish, yasaliq va uslubiy jihatdan tahlil qilish yaxshi samara beradi. Bunda nomning asar mavzu va g‘oyasi hamda syujetiga mutanosibli, uslubiy-badiiy jihatlari, tuzilish modellari, nominatsion-motivatsion va lug‘aviy asosi, muallifning sarlavha yaratish mahorati ochib beriladi.

2. Badiiy timsol (poetonim)lar ism va laqablarining lingvopoetik tahlili. Badiiy asar, jumladan, dramalardagi har bir timsolning ismi va laqabi ham muayyan semantik, uslubiy-badiiy vazifa bajaradi. Bosh timsol va personajlarning ism hamda laqablari “gapiruvchi nomlar” sifatida o‘z sohibi xususida ma’lum axborotlarni tashiydi, ifodalaydi. Shu bois dramatik asar poetonimlarining xronologik (tarixiy va zamonaviyligi), real va to‘qimaligi jihatidan leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, uslubiy xususiyatlarini shakl va ma’no, ya’ni nom va shaxs uyg‘unligi asosida tahlil qilinadi. Bu jarayonda muallifning badiiy timsol yaratish, ularning nomlash borasidagi lisoniy-badiiy mahorati yoritiladi.

3. Dramatik asarlarga xos lakonizm (qisqalik, lo‘ndalik) xususiyatlarining lingvopoetik tahlili. Dramaning badiiy adabiyotning qiyin turi deb atalishi yana shundaki, unda voqealarni shunday ko‘rsatish kerakki, ular ixcham ravishda namoyon

³⁶ Шарофиддинов О. Ҳақиқатга садоқат. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 164 б.

³⁷ Шукуров Н. Услуб ва жанрлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – 170 б.

³⁸ Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йилларида ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.49-113.

³⁹ Махмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. – № 6. – Б. 48-50.

⁴⁰ Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: Ленанд, 2022. – С.5.

⁴¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.148-159.

etilishini, personajlarning xarakterini soʻz va yumush bilan uygʻun holda, aniq va toʻliq ochishni, tushunturish, bayon etish, izoh berishdan toʻla xoli boʻlishni, keraksiz tafsilotlardan qocha bilish sanʼatini egallashni talab qiladi.⁴² Shu jihatdan dramatik asarlarda lakonizm alohida oʻrin tutadi. Asarda qisqalik, loʻndalik talabi bilan bogʻliq tarzda qoʻllangan hikmatli soʻzlar, maqol, matal, frazeologizm va shiorlar lakonizm namunalari. Ayniqsa, dramatik asarlarda lakonizm alohida oʻrin tutadi. Shu jihatdan bunday birliklar tahliliga alohida eʼtibor qaratish lozim.

4. Dramatik asarlarda milliy, tarixiy va mahalliy koloritning ifodalanishining lingvopoetik tahlili. Dramatik asarning bunday tahlilida makon va zamon uygʻunligi tamoyiliga asoslangan holda yondashiladi.

Dramatik asardagi muayyan davrda, hududda roʻy bergan voqea-hodisalar tasvirlanadi. Bu asar matnidagi milliy, tarixiy va mahalliy kolorit ifodasi bilan bogʻliq. Tahlil jarayonida xuddi mazkur koloritlarning lisoniy, uslubiy ifodalanishi, yaʼni bunda muallifning tilning fonetik, leksik, morfemik, uslubiy birlik va vositalaridan foydalanish borasidagi dramatik, lisoniy mahorati yoritiladi.

5. Dramatik asarlar uslubiy-shakliy xususiyatlarining lingvopoetik tahlili. Har qanday dramatik asar nasriy yoki nazmiy usulda yaratiladi. Dramatik asarlarda ham til birliklari maʼlum bir uslubga xos nutq shaklida namoyon boʻladi. Til birliklarining dramatik asarlarda qoʻllanilish shakli *dramatik nutq* deb yuritiladi.

Tildagi badiiy tasviriy, uslubiy vositalar asar tilini boyitishda, ifodaning taʼsirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu dramatik matndagi tasviriy vositalarni ularni lingvopoetik tadqiq etish badiiy matnning betakror imkoniyatlarini ochib berilishiga zamin yaratadi. Bu jarayonda asarda qoʻllangan *antiteza*, *epitet (sifatlash)*, *oʻxshatish (tashbeh)*, *kinoya (ironiya)*, *sarkazm*, *mubolagʻa* kabi tasviriy vositalar va ularning badiiy, uslubiy xususiyatlari, muallifning shunday vositalarni yaratish borasidagi mahorati tahlil qilinadi.

6. Remarkalarning lingvopoetik tahlili. Dramatik asarlar teatr sanʼatining obyekt boʻlganligi bois, sahna harakatlariga asoslanadi. Sahna harakatlari bilan bogʻliq izohlar, voqea-hodisalar muallif tilidan aynan remarkalarda beriladi. Remarkalar timsollar harakatlari, nutqining taʼsirli va jonli ifodalanilishini taʼminlaydi, ayniqsa, har bir parda avvalida berilgan remarkalar asar sujetiga ishora qiladi, oʻqiguvchini ruhan tayyorlaydi. Dramatik asarlar tarkibida remarkalar muhim oʻrin tutadi. Shu nuqtai nazardan bunday tahlil jarayonida asardagi remarkalarning tuzilishi, hajm va mazmun jihatlari, dramaturgning remarka yaratish va uni joylashtirish, tartiblash mahoratiga eʼtibor qaratiladi.

7. Badiiy timsollar nutqining lingvopoetik tahlili. Dramaning til xususiyatlari ham oʻziga xos. Boshqa turlardan farqli oʻlaroq, unda personajlarni har tomonlama, batafsil xarakterlash imkoniyati yoʻq. Shu sababli muallif barcha gʻoyaviy niyatlarini personajlarning faoliyati orqali amalga oshiradi. Badiiy tasvir vositalarining xarakterni ochishdagi roli kattadir⁴³.

⁴² Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б.16.

⁴³ Абдусаматов Х. Ўша китоб, – Б.13.

Drama yaratish muallifidan muayyan davrning dolzarb masalalarini ixcham shaklda mohirlik bilan ifodalash, timsollar harakatini butun asarda qizil ip kabi o'tkazish, qiziqarli, o'tkir voqealarni topish, kuchli konfliktlarni yaratish, puxta xarakterlar zaminida paydo bo'ladigan chuqur ichki kechinmalarni berish, monolog va dialoglarni bir-biriga mantiqan bog'laydigan uslubni topish talab qilinadi.

Dramaning asosiy tasvir predmeti – harakat, u, Arastuning ta'rificha, “barcha tasvirlanayotgan shaxslarni harakat qilayotgan, faoliyatdagi kishilar sifatida taqdim etadi”. Dramada obyektning plastik obrazi yaratiladi, unda subyekt – ijodkor shaxsi ham obyektga sindirib yuboriladi. Drama adabiyotga ham, teatr san'atiga ham birdek taalluqli: uni o'qib ham qabul qilish mumkin, ayni chog'da u teatr asari – sahna asosi. Boshdanoq sahnaga mo'ljallab yozilishi dramatik asarning qurilishi, poetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim omildir. Chunki u sahna ijrosini ham ko'zda tutishi zarur. Bu narsa dramaning tashqi qurilishidayoq ko'rinadi (parda va ko'rinishlarga bo'linganlik, remarkalarning ijroni ko'zda tutgan holda berilishi). Ijroga mo'ljallanganlik dramaning ichki strukturasi ham belgilaydi. Jumladan, dramadagi harakat – sujet voqealari makon va zamonda cheklangan, ijro vaqtiga sig'ishi uchun sujetning keskin konflikt asosida shiddat bilan rivojlanishi taqozo etiladi⁴⁴. Shularni e'tiborga olgan holda, dramatik asarlarning lingvopoetik tahlilida asarning tashqi va ichki tuzilishi: parda va ko'rinishlarga bo'linishini, muallifning remarka berish mahoratini ham tahlil qilish lozim.

Dialog – ikki va undan ortiq personaj orasida bo'lgan suhbat, savol-javobdan iborat bo'ladi. Dialog, xususan, dramatik asarda obraz va xarakter yaratishning, dramatik holatning rivojlantirishning asosiy badiiy vositalaridan biri hisoblanadi⁴⁵.

Dramaning asosiy nutq shakli – dialog. Unda qo'llanuvchi monologik nutq ham shartlilikning bir ko'rinishidir. Dramadagi monologik nutq qurilishi o'ziga xos: u ko'proq personajning o'zi bilan o'zi yoki kim bilandir xayolidagi suhbat, bahsi, kimgadir murojaati tarzida quriladi, ya'ni bitta personaj tilidan aytilgan holda ham dramadagi monologik nutq dialogik asosga egadir⁴⁶.

Badiiy asar, jumladan, dramatik asarlar tili obrazlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki til yozuvchining u yoki bu obrazni yaratish uchun leksik, intonatsion va nutqiy vositalarni nima maqsadda tanlaganini, poetik sintaksisdan qanchalik foydalanganini bildiradi. Shu ma'noda, obraz asar g'oyaviy mazmuniga shakl bo'lgani kabi, til obraz shakli hisoblanadi. Bu esa yozuvchining badiiy-adabiy uslubini, badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi⁴⁷.

Qahramonlarning individual tilini yaratish juda mushkul va og'ir. Buning qiyinchiliklari shundaki, dramaturg har bir personajning fe'l-atvorini chuqur anglab va belgilab, uning tabiati va xarakteriga mos tushadigan gaplarni qidirib, topib berishi

⁴⁴ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 95. 400 б.

⁴⁵ Шукуров Ш., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б.122.

⁴⁶ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Ўша луғат, 96-б.

⁴⁷ Шукуров Ш., Ҳотамов Н., Холматов Ш., Махмудов М. Ўша луғат, 119-б.

talab qilinadi. San'atkor har bir qahramonni shunday so'zlar bilan gapirtirsinki, bu so'zlar uni boshqa qahramonidan ajratib turishga asos bo'lsin⁴⁸.

Dramatik turda xarakterlar tasviri, boshqa adabiy tur va janrlardagidan farqli o'laroq, juda ham bo'rttirilgan bo'ladi⁴⁹. Shu nuqtayi nazardan badiiy timsollar tasviri va nutqidagi o'xshatish, mubolag'a kabi tasviriy vositalar tahlili ham muhim mohiyatga ega.

Mazkur bobning 2-bo'limida **“Maqsud Shayxzodaning o'zbek dramaturgiyasi va dramatik uslubi takomilidagi o'rni”** masalasi yoritildi.

Maqsud Shayxzodaning o'zbek dramaturgiyasi va dramatik uslubi, nutqi takomili hamda rivojidadagi o'rni quyidagilarda ko'rinadi:

1. Maqsud Shayxzoda o'zbek dramaturgiya maktabi asoschilaridan biridir.

Buyuk tragediyanavislar Exsil, Sofokl, Shekspir kabi ijodkorlarning qanday katta iste'dodga ega bo'lganligini bugungi adabiyotshunoslar tan oladilar. Ulardan o'rgangan Maqsud Shayxzoda ham tragediya janrida o'ziga xos maktab yaratdi. Buni o'zbek adabiyotida adibning “Mirzo Ulug'bek” va Fitratning “Abulfayzxon” tragediyalari mazkur janrning eng sara namunalari sifatida e'tirof etiladi. Buni G'.Gulom, Oybek, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Oripov, Temur Ubaydullo kabi yirik adabiyotshunos, shayxzodashunos olimlar, mashhur adiblarning Maqsud Shayxzoda dramalari haqidagi fikrlari ham tasdiqlaydi⁵⁰.

O'zbek adabiyotida tarixiy mavzularda yaratilgan Oybekning “Navoiy”, Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek”, Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi”, Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni” asarlari o'zbekning o'zligini ko'rsatuvchi, o'zbekning dahosi, qaddi-bastini jahonga ko'z-ko'z qiluvchi mayoq vazifasini o'tadi⁵¹.

Temur Ubaydullo adib dramaturgiyasi xususida fikr yurititar ekan: “Shayxzoda dramaturgiyasi deganda manaman degan fojyanavislarning qalami bunyod etgan beadam zo'r shoh asarlar – alp tog'lariga husn bo'la oladigan bir juft azamat qoyani tasavvur qilaman. Zero, bu qoyalar bo'lmaganda edi, tog'lar ham g'arib bo'lib qolgan bo'lur edi”⁵², – deb yozadi.

O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov e'tirof etganidek, “Mirzo Ulug'bek” dramasi hech ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorga qo'ysa bo'ladi”⁵³.

2. Maqsud Shayxzoda o'zbek dramaturgiyasiga tarixiy mavzu va tarixiy qahramon timsolini olib kirdi hamda bu borada ibrat maktabini yaratdi.

Tragediyalarda qahramon sifatida, ko'proq, mifologik personajlar, shohlar, shahzodalar, malikalar-u sarkardalarning olingani bejiz emas, zero, o'zining fojia holatini idrok eta olish, qalbi-yu ongida ma'naviy-ruhiy iztiroblarni kechira olish,

⁴⁸ Абдусаматов Х. Драма назарияси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – Б. 213.

⁴⁹ Султон, Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.278.

⁵⁰ Шарафиддинов О. Уч чўққининг бири // Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.133; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.71; Оripov А. Шеър – заковат // Эҳтиёж фарзанди. Адабий мақолалар. Сухбатлар. Бадий публицистика. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б. 126.

⁵¹ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.71. 112 б.

⁵² Ubaydullo, Temur. Sarqaymas saxifalar: (Suxbatlar, esselar). – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – Б. 70.

⁵³ Шарафиддинов О. Уч чўққининг бири // Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.133.

shunda-da sinmay maqsad tomon yurishlikka o'rtamiyona odamlarning chog'i kelmaydi. Shu sababli ham XX asr o'rtalarida yaratilgan adabiyotimizdagi tragediya janr talablariga to'la javob berishga yaroqli "Mirzo Ulug'bek", "Jaloliddin Manguberdi" asarlaridan birining markaziga shoh, ikkinchisining markaziga sarkarda chiqarilgan⁵⁴.

U o'zbek adabiyotiga Jaloliddin Manguberdi obrazini birinchi bo'lib olib kirdi. Mo'g'ul istilosi davrida Movarounnahrda katta jasorat ko'rsatgan Jaloliddin haqida Maqsud Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, sho'ro tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning nomi ham, jangovar jasorati ham tilga olinmagan. Dastlab drama manbalarda "Jaloliddin" deb atalgan. Ko'p ta'kidlangani va e'tirof etilganidek, o'zining fikriy hamda badiiy to'laqonligi, yuksakligi jihatidan "Jaloliddin" bizning dramaturgiyamizda yuqori poyani ishg'ol etdi⁵⁵.

3. Maqsud Shayxzoda o'zbek dramatik uslubi va nutqini takomillashtirdi, rivojlantirdi. "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari badiiy jihatdan teran asarlardir. Asarlarning monolog va dialoglari pishiq ishlangani, har bir qahramon xarakterining ham til boyligini, ham ruhiy dunyosidagi o'ziga xoslikni ifodalay oladigan yo'sinda ekani bilan ajralib turadi. Qahramonlararo konfliktlarda sun'iylik yo'q, ular voqealarning tabiiy oqimi va xarakterlar kurashidagi maqsadning hayotiyliigi va haqqoniyligidan kelib chiqadi⁵⁶.

O'zbek adabiyotida to'la ma'nodagi tragediya janri namunasini Maqsud Shayxzoda ijod etdi. Uning "Mirzo Ulug'bek" nomli tarixiy tragediyasida mazkur janrning Shekspir kashf qilgan namunalardagi eng kerakli xususiyatlar saqlab qolindi. Maqsud Shayxzoda to'laqonli tarixiy qahramon xarakterini hosil etish, uning ijtimoiy mohiyatiga jiddiy e'tibor berish, turli ijtimoiy guruhlar orasidagi ziddiyatlarni mufassal tasvirlash, hayajonli dramatik vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni o'zaro uzviy bog'lash, o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalanish yo'li bilan buyuk olim va adolatli sohibqiron Mirzo Ulug'bek fojiasini haqqoniy, ishonarli va ta'sirchan holda ochib berdi⁵⁷.

O'zbek dramaturgiyasida tom ma'nodagi tragediyaning g'oyaviy-estetik prinsiplari Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" she'riy pyesasida bekami-ko'st qaror topdi. Dramaturgiya sohasi nazariyotchilari e'tirof etganidek, "Jaloliddin Manguberdi" o'zbek dramaturgiyasida shu vaqtgacha tragizm g'oyalarini yuzaga chiqarishda erishilgan yutuqlarni rivojlantirgan, mujassam etgan hamda shu pafosni asarning bosh g'oyaviy-estetik negiziga aylantirgan chinakam qahramonlik tragediyasidir⁵⁸.

4. O'zbek adabiyoti va uslubiyaatiga xorij dramaturgiyasi yutuqlarini olib kirdi, uni o'zbek tilining milliy tabiati, uslubiy imkoniyatlari negizida takomillashtirdi. Shekspir tragediya tilini ishlash sohasida yuksak natijalarga erishgan edi. U ko'p tragediyalarini oq she'rda yozgan. Bu she'r asar tilining jonli

⁵⁴ Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Андижон: Хаёт, 2002. – Б. 183.

⁵⁵ Ойбек, Фафур Гулом. "Жалолитдин" драмаси хақида // Қизил Ўзбекистон, 1945, 18 февраль.

⁵⁶ Norova G. Maksud Shayxzoda adabiy merosining til xususiyatlari // O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari, 2023. – №1(5). – B.138-146.

⁵⁷ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б.303-304.

⁵⁸ Имомов Б., Жўраев К., Ҳақимова Ҳ. Ўзбек драматургияси тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 173.

so‘zlashuv nutqiga ancha yaqinlashtirar, shuningdek, mazkur janrga xos tantanavorlik, ko‘tarinkilik ruhini saqlab qolishga imkon berar edi⁵⁹. Jahon dramaturgiyasini puxta o‘rgangan shoir va dramaturg Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi ham oq she‘rda yozilgan.

Adabiyotshunoslikka oid adabiyotlarda oq she‘r sillabik va sillabik-tonik she‘r tizimidagi misralari o‘zaro qofiyalanmagan she‘r turi: qofiyasiz she‘r sifatida izohlanadi. Oq she‘r shoirga o‘z fikri va hissiyotini to‘laroq ifodalash imkonini beradi va undagi ritmik izchillik esa she‘r g‘oyasiga kuchli ta‘sirchanlik bag‘ishlaydi.

Maqsud Shayxzoda o‘zbek tilida ham oq she‘rda dramalar yozish mumkinligini amalda isbotladi va bu she‘riy turning imkoniyatlarini ochib berishdan tashqari, shaklan va usluban boyitdi. Ta‘kidlash joiz, qofiyasiz she‘r sifatida qaraladigan bu turda Maqsud Shayxzoda qofiya san‘atidan ham o‘rinli va mahorat bilan foydalandi.

5. Maqsud Shayxzoda o‘zbek paremiologiyasini yangi hikmatli so‘zlar bilan boyitdi. Badiiy asar tili go‘zalligining aniq bir sharti bor: tasvir aniq va ravshan bo‘lishi, ya‘ni tasvir etilayotgan xulq, harakat yoki manzara til tufayli o‘quvchilarning ko‘z oldida yorqin namoyon bo‘lishi zarur. Shukur Burhon e‘tirof etganidek, Maqsud Shayxzoda “... dilkash, qadrdon o‘rtoq, istarasi issiq, hamisha dilga yaqin”, “Hamisha to‘g‘risini, ko‘pincha tagdor qilib, lekin samimiy gapirguvchi” inson bo‘lgan⁶⁰. Bizningcha, adibga xos ana shu insoniy fazilatlar uning asarlari, xususan, dramalaridagi badiiy timsollarda va ularning hikmatli so‘zlarida o‘z aksini, ifodasini topgan.

Xullas, Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi” tragediyalari bilan o‘zbek tilining dramatik uslubi, nutqi takomiliga munosib nazariy va amaliy hissa qo‘shdi. Dramatik nutqning so‘zlashuv va badiiy uslublar negizida shakllanishini amalda ko‘rsatdi. Xorij dramaturgiyasi, xususan, shekspirona uslubni o‘zbek dramaturgiyasi va uslubiyatiga olib kirdi, ijodiy jihatdan takomillashtirdi, tarixiy mavzuni, real tarixiy qahramonlar timsolini dramada tasvirlash, yaratish, ularga xos tarixiy, milliy koloritni berish borasida ijodiy maktab yaratdi.

Dissertatsiyaning 2-bobida “**Maqsud Shayxzoda dramalaridagi onomastik, paremiologik va murojaat birliklarining lingvopoetik tahlili**” yoritilgan. Xususan, 1-bo‘limda Jaloliddin Manguberdi timsolining onomastik va lingvopoetik tahlili berilgan. Tragediyaga bosh timsol sifatida tanlangan tarixiy qahramon Jaloliddin tug‘ilganda bobosi Tekesh Xorazmshoh Najmiddin Kubrodan nabirasiga munosib ism topib berishni iltimos qiladi. Alloma bolaning kelajagi xususida bashorat qilib, qilich bobida mashhur va jahongashta bo‘lishini aytib *Jaloliddin* ismini bergan. *Jaloliddin* antroponimining lug‘aviy asosi arabcha bo‘lib, *dinning ulug‘vorligi, shavkati, shukuhi; dinning buyukligi, mukammalligi yoki dinning ulug‘, shavkatli farzandi* ma‘nolarini anglatadi⁶¹.

Jaloliddinning laqabi manbalarda turlicha berilgan va izohlangan. Ensiklopedik lug‘atda izohlanishicha, Jaloliddinning burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun

⁵⁹ Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарк, 2008. – Б. 303.

⁶⁰ Шукур Бурхон хикояси // Каримов Н. Мақсуд Шайхзода. Маърифий-биографик роман. – Тошкент: Шарк, 2010. – Б.118.

⁶¹ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б.132.

Mankburni laqabi bilan atalgan. Keyinchalik bu nomning talaffuzi o'zgarib "*Manguberdi*" shaklini olgan⁶². Bizningcha, *Mankburni* laqabining *Manguberdi* variantiga o'zgarishi ancha ishonarsiz.

Maqsud Shayxzodaning shogirdi M. Zokirovning aytishicha, dramaning nomlanishi xususida muallif quyidagicha fikr bildirgan: "As-Nasaviy "Mengburni – *burnida xoli bor, xoldor* debdi, men esa uning xalqimizning qahramonona kurashi tarixida abadiy qolishini umid qilib "Jaloliddin Manguberdi" deb nom qo'ydim. Menimcha, tomoshabinlarga ma'qul kelsa kerak".

Demak, Maqsud Shayxzoda *Mengburni* laqabini tarjima qilmagan, balki yaratilajak asarning g'oyaviy mazmuni, o'z maqsadi, bosh timsolning xarakteriga mutanosib tarzda ezgu maqsadlar bilan *Manguberdi* deb atagan va ta'kidlash joiz, bu maqsadga erishgan. Tarixiy qahramon asrlar davomida *Manguberdi* nomi bilan yashab kelmoqda va yashaydi. Maqsud Shayxzodaning Manguberdi nomining abadiylashishida hissasi salmoqlikdir. Ijodkor drama orqali Jaloliddin Manguberdi timsolini qayta jonlantirdi, badiiylashtirdi.

Dramaturg timsolning ezgu maqsadlarini quyidagicha ifodalaydi:

*Bir bo'lsaydi saltanat, el-urug'lar bir,
Daxshat sochib bo'lardik jangda olamgir.
Mangulikdan joy olgan – yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.*[J.M, 417-b.]

Muallif Jaloliddin nutqida uning o'z nomi va jismiga ishora etadi. Kontekstda "*vatan hurriyati, birligi yo'lida jangda mardonavor, sobit turuvchi askar nomi mangulikka muhrlanadi, Jaloliddin Manguberdi nomi ham vatan bilan yonma-yon tillarda doston bo'lajak, avlodlar meni yod etajak*" mazmuni anglashiladi. Muallif timsol nutqi orqali *Manguberdi* antroponimga taalluqli lug'aviy asos semasini badiiy-bo'yoqdor, zalvorli, emotsional ifodalagan.

Maqsud Shayxzodaning shayxona uslub sohibi ekanligi dramaning so'nggi satrlarini ham Jaloliddin Manguberdi nomi, jismi va hayot falsafasiga xos mantiqiy-badiiy mushohada bilan yakunlaganligida ham seziladi:

Kim yurtdan yovni quvsa – mendurman o'shal. [J.M, 417-b.]

Adib har bir siyosiy jarayonda yurt ozodligi yo'lida mardona turuvchi asl yurt o'g'lonlarini Jaloliddin timsolida tasvirlaydi.

Dramaturg *Temur Malik, Elbors pahlavon* kabi timsollarni ham asar sujetiga mahorat bilan olib kiradi. Temur Malik antroponimi tarixiy, adabiy manbalarda "Rustami doston" deya ulug'langan. Xorazmshohlar saltanati armiyasida lashkarboshi, qo'mondon lavozimlarida faoliyat olib borgan. Bu ismga "*temirdek mustahkam, chidamli, qattiqqo'l, qaddi-qomatli*" ma'nolarini anglatuvchi *temur; podshoh, hukmdor*" ma'nosidagi arabcha *malik* so'zlari lug'aviy asos bo'lib, *qat'iyatli hukmdor* semasini anglatadi. Asarda ismiga mutanosib tarzda Vatan uchun jonini fido qilguvchi sarkarda sifatida tasvirlanadi:

*Gunohkorlar gunohdan tonar,
Men sardorman, tig' surmak hunar!*

⁶² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 3-ж. – Б. 436.

*Guvoh bo'lar yer birla osmon
Yanchganimda sizni qurtsimon –
Guvohliging ko'r shayton, bekor!
Ha, mendurman, bil Temur sardor,
Shunday javob xonga ham tayyor!* [J.M,387-b.]

Ayniqsa, *Elbors pahlavon* antroponimi fojiada badiiy, uslubiy ahamiyatga ega. Mazkur *ism + unvon* modelidagi antroponim *el – xalq, bors – bo'ri, pahlavon – bahodir, bahodir yurt himoyachisi* degan ma'noni anglatadi. Ismga xos talqinlar uning nutqida ham o'xshatish bilan ta'sirchan ifodalangan:

Elbors

*Badahshonning ko'ppagiday bo'lib men yovuz,
Yirtib, bo'g'ib tashlayman yovni ayovsiz!* [J.M, 312-b.]

Bobning 2-bo'limida “**Mirzo Ulug'bek**” tragediyasidagi **poetonimlarning lingvopoetik tahlili**” berilgan.

Maqsud Shayxzoda “**Mirzo Ulug'bek**” tragediyasida ham badiiy timsollar ismi va laqablarining funksional-semantik, uslubiy jihatlariga alohida e'tibor qaratgan. Bosh va hatto, epizodik timsollarning ism hamda laqablari leksik-semantik, nominativ-motivatsion, vazifaviy jihatdan uslubiy, lisoniy-badiiy mohiyatga ega. Dramaturgning badiiy mahorati shundaki, asardagi har bir timsol asosiy g'oyani ochish, bosh timsol sifatlarini har tomonlama yorqin ko'rsatish va tasvirlashga yordam beradi, “gapirib turadi”. Maqsud Shayxzodaning asosiy maqsadi tragediyada bosh timsol Ulug'bekni ilm-ma'rifat kishisi, yulduzlar sirini ochishga butun qalbi bilan berilgan olim sifatida ko'rsatish edi. Muallif o'z oldiga kengroq va qiyinroq vazifa qo'ygan: Ulug'bek degan yorqin yulduzni badiiy kashf qilish ishtiyoqi, uning hamma qirralari va jilvalari, nurlari va dog'larini namoyish etish orzusi shoir qalamiga rahnamo bo'lgan. Adibning mahorati shundaki, *mirzo* so'zini, ya'ni epitetini noan'anaviy tarzda ismdan oldin qo'llab, tragediyani “*Mirzo Ulug'bek*” deb atagan. Bu nomga o'zgacha joziba va mazmun, boshqacha aytganda, lisoniy-badiiy ruh baxsh etgan va natijada jarangdor, ohangdor, o'quvchi diqqatini tortuvchi, shakl va mazmun uyg'unligi tamoyilida sayqal topgan shayxona orginal sarlavha yaratilgan. tragediyadagi har bir timsol, xususan, *Firuz*, *Bobo Kayfi*, *Piri Zindoniy* kabi personajlarning ismi va laqablari muayyan lingvopoetik vazifa bajargan.

Maqsud Shayxzoda *Bobo Kayfi*da afandi timsoli unsurlarini mahorat bilan mujassamlashtirgan⁶³. Bu uning yurish-turishi, adolatni va haqiqatni ro'y-i rost aytishida yorqin ko'rinadi. Shoirning mahorati shundaki, *Bobo Kayfi*ni takror va alliteratsiyalar vositasida sodda, ravon, xalqona uslubda so'zlatadi:

*Bilsam bildim, bilmam bildim, bilmasam bilmam.
Bilganim shu; haq barhaqdir, bilmaganimchi;
Haq nohaqdir, nohaq haqdir, haqiqat yo'qdir.
Haqqu nohaq, nohaqqu haq... Bay-bay-bay... boy...
Bobo Kayfi kallasining tarozulari*

⁶³ Алиев М. Драматургия ва ҳаёт. – Тошкент, 1966. – Б. 35.

Shuncha yukni torta olmas, chirsillab sinar. [M.U, 237-b.]

Kontekstda muallif timsol nutqidagi “*Haq nohaqdir, nohaq haqdir*” birikmasida tarixiy davr, saroy va jamiyatdagi boshboshdoqliklarni xalqona uslubda tasvirlagan. “*Bobo Kayfi kallasining tarozulari*” tag ma’noli iborasida esa Afandi obraziga xos yumor bilan “*Sotsial jamiyatdagi nohaqliklarni boshim, yelkalarim ko’tarolmaydi, bardoshim yetmaydi*” mazmunidagi haqiqatni kinoyali ifodalaydi.

Tragediyadagi *Xo’ja Ahror, Shayxulislom Burxoniddin, Bek Arslon, Farmonshoh Qo’rchi, Sayyid Obid* kabi timsollar va ularning ism hamda laqablarida tasvirlanayotgan makon va zamon bilan bog’liq tarixiy, milliy, xalqona kolorit yorqin tasvirlangan.

Bobning “**Timsollar nutqiga xos hikmatlarning lingvopoetik xususiyatlari**” nomli 3-bo’limida tragediyadagi hikmatli so’zlarning semantik, uslubiy qirralari yoritilgan.

Dramatik asarlarda voqea-hodisalar badiiy timsollarning harakati va nutqi vositasida yoritiladi. Boshqacha aytganda, qahramonlarning tashqi qiyofasi, ichki dunyosi, dunyoqarashi, xarakteri, xislatlari, orzu-umidlari ularning so’zida namoyon bo’ladi. Shu boisdan dramaturg bosh timsollardan tortib, oddiy personaj nutqiga ham jiddiy e’tibor qaratadi, ularning xarakteri, kasb-kori, martabasiga ko’ra so’zlatadi. Adib dramalarida har bir timsol falsafa bilan hikmatli so’zlatilgan. Birgina “Mirzo Ulug’bek” tragediyasida 30 yaqin timsollar nutqida ularning butun boricha ko’rasiz, tasavvur qilasiz. Boshqacha aytganda, fojiadagi posbon posboncha, navkar navkarcha, sipohiy sipohiycha, ijod, ilm ahli falsafiy, ijodiy, bosh timsol Mirzo Ulug’bek esa shoh sifatida shohona, olim sifatida olimona fikrlaydi va so’zlaydi. Buni biz Ulug’bek timsoli nutqiga xos hikmatlar misolida ham yorqin kuzatamiz. Fojiada Mirzo Ulug’bek nafaqat adolatli shoh, mehribon ota, balki ziyoli, ilm fidoyisi, olim sifatida namoyon bo’ladi. Bu uning ilm, ma’rifat, ilmning o’rni haqidagi Piri Zindoniya qaratilgan quyidagi hikmatli fikrlarida ham ifodalangan:

Mamlakatga urfon kerak, ilmu ma’rifat,

Boshboshdoqlik emas, idrok, nizom, farosat. [M.U,164-b.]

Ulug’bek Jomiy bilan suhbatda:

Ilm inson ko’zin ochar, qulog’in ochar,

Fan miyaga idrok bilan yorug’in sochar. [MU,185-b.]

Shoirning mahorati bilan xalq maqollariga monand yaratilgan hikmatli so’zlarning har biriga ta’zod, o’xshatish, ironiya, sarkazm kabi tasviriv vositalar asosida uslubiy-badiiy sayqal berilgan.

Dissertatsiyaning 2.4-bo’limida “**Murojaat birliklarining semantik-funksional va lingvopoetik tahlili**” berilgan.

Tilning asosiy funksiyalaridan biri shaxslararo kommunikatsiyaga xizmat qilishidir. Kishilik jamiyatida shaxslarning ma’lum bir voqelikka turli ijtimoiy-sotsial munosabatlari murojaat birliklari orqali ifodalanadi. Adresatning adresantga ijtimoiy-ruhiy holatidagi turli his-tuyg’ulari: *xursand bo’lish, xafa bo’lish, rozilik, norozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, zaharhanda, masxara, olqish, so’roq, ta’kid, istak, qo’llab-quvvatlash* kabi kommunikativ mazmuni ifodalashda murojaat

birliklarining turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi⁶⁴. Dramatik asarlarning asosini monologik va dialogik nutq tashkil etishi bois timsollar muloqotida murojaat birliklarining turli ko‘rinishlaridan faol foydalaniladi.

Bunday birliklarda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch, hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi baho semalari ham ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan murojaatlarning barida salbiy yoki ijobiy fikr mavjud. Jumladan, *Abdullatif* – padarkush, jamiyat va tarix la‘natiga uchragan xiyonatkor o‘g‘il timsoli. Tragediyaning fojiaiy nuqtasi ham shoh, olimning shu o‘g‘li tomonidan o‘ldirilishidadir. Muallif ana shu xiyonatkor, padarkush o‘g‘il obrazining murojaatlarida otasiga nisbatan *hasad, nafrat, g‘araz va tubanlik* semalarini mahorat bilan ifoda etadi:

Ulug‘bek

Movarounnahr hukmdori kim ekan hozir?

Abdullatif

Shahriyori falakviqor hazrat Ulug‘bek! [M.U,180-b.]

Bu *shahriyori falakviqor hazrat Ulug‘bek* murojaatida saroy kishisiga xos shohona ijobiy sema ustuvor. Muallif Abdullatif nutqida bu murojaat shaklini qo‘llash orqali uning konnotativ semasiga urg‘u beradi. Murojaat shaklida Abdullatifning o‘z otasiga salbiy munosabati *kinoyali, piching, zaharhanda* ohangida anglashiladi.

“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi timsollari nutqida Ulug‘bekka nisbatan qo‘llangan murojaat birliklarining har biri semantik-funksional, uslubiy jihatdan alohida mohiyatga ega (Qarang. 2.4-jadval).

Asar matnidagi har bir murojaat shakli orqali timsollarning Ulug‘bekka nisbatan turli subyektiv munosabati, ya‘ni baho semasi ifodalangan. Jumladan, saroy a‘yonlari nutqiga xos murojaat birliklarida *ehtrom, faxr, maqtov, xursandlik, mamnunlik* kabi ekspressiv munosabatlar ifoda etilganligini kuzatamiz.

Dramalarda birgina Ulug‘bek va Jaloliddinga nisbatan qo‘llangan murojaat shakllari tarixiy koloritni ifodalash barobarida bosh timsol falsafasi va ruhiy olamini oydinlashtirgan. Shayxona uslubda “kashf” etilgan murojaat shakllari adresant va adresat o‘rtasidagi turli ijtimoiy-siyosiy, ekspressiv munosabatlarni ochib berishga, badiiylik va obrazlilikni oshirishga xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning 3-bobida “**Dramalardagi tasviriy va uslubiy vositalarning lingvopoetik tahlili**” dalillar asosida ochib berilgan.

Mazkur bobning “**Dramalardagi tasviriy vositalarning lingvopoetik tahlili**” nomli 1-bo‘limida badiiylik va obrazlilik ifodalovchi vositalarning tahlili berilgan. Bunday birliklar ilmiy manbalarda *badiiy tasvir vositalari, ko‘chimlar, troplar, uslubiy figuralar // stilistik figuralar, sintaktik-stilistik figuralar, she‘riy san‘atlar*⁶⁵ kabi turli terminlar bilan ataladi va ular semantik-funksional jihatdan bir necha turlarga bo‘linadi. Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo

⁶⁴ Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари. – Тошкент: Академ нашр, 2015. – Б. 15.

⁶⁵ Бу haqda qarang: Шомаксов А., Расулов И. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Мамажонов М., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1994; Бобоев Т. Шеър илими таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007; Мамажонов А., Addupatoyev М. О‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. – Farg‘ona: Classic, 2021.

Ulug‘bek” tragediyalarida *metafora, o‘xshatish, jonlantirish, epitet, tanosib, tadrij, perifrasi, mubolag‘a, ironiya, sarkazm* kabi 20 dan ortiq badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli va unumli foydalanilgan.

“Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining sujeti ziddiyat hamda kurashlarga yo‘g‘rilgan. Bu ziddiyatlar vatanparvar, jangchi – Jaloliddin va shoh, olim – Ulug‘bekning qonli fojialariga asoslanadi. Asarlarning qizil chizig‘ida *Jaloliddin – saroy ahli, Jaloliddin – Xorazmshoh, Jaloliddin – Chingizxon*; “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida esa *shoh – olim, ota – o‘g‘il, o‘g‘il (Ulug‘bek) – ona (Gavharshod), shoh – sardadorlar (Piri Zindoniy), olim – Amir Temur, shoh – saroy ahli* ziddiyatlarining fojiali yakuni mujassam. Shu boisdan muallif badiiy matnda timsollar o‘rtasidagi tragedik ziddiyatni yoritishda *antiteza, kinoya, ironiya, sarkazm* kabi badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalangan. Bu vositalar dramatik matnda timsollarning jamiyatga va o‘zaro salbiy subyektiv munosabatlarini yorqin tasvirlash imkonini bergan va mazmun muxtasar, ta’sirchan ifodalangan.

Kinoya, ironiya, sarkazm uslubiy-semantik, ekspressivlik nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. Bu uch turli figura fojiviy asarlarda tadrijiy tartibida gradatsiya bilan beriladi.

“Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining tahlilida muallif 50 dan ortiq o‘rinlarda timsollar nutqida sarkazm tasviriy vositasidan foydalanganligini kuzatdik. Har ikki dramada adib sarkazm orqali timsollar o‘rtasidagi qarama-qarshilikning fojiali nuqtalarini tasvirlaydi. Sarkazmda ko‘chma ma’no, pardalanganlik xususiyati yemiriladi, nazarda tutilgan obyekt bilan ifodaning aloqasi ancha ochiq bo‘ladi⁶⁶.

Adib o‘xshatish badiiy tasviriy vositasini faol qo‘llagan. Muallif bosh timsol Mirzo Ulug‘bek bilan bog‘liq tarzda tabiat tasvirini – samovot manzarasini o‘xshatishlar vositasida takrorlanmas badiiyat bilan ifodalaydi.

Maqsud Shayxzoda tragediyaning 1-pardasiga samo tasvirini III posbon nutqida quyidagicha tasvirlaydi:

Shu zangori ko‘kni degin yalanglik o‘tloq.

Mana senga misol uchun, bir to‘da yulduz,

Fahming yetsa, uni bilgin bir suruv qo‘y deb.

Mana deylik o‘sha bulut...

Lekin asli-chi,

Yaylovdagi tog‘ tizmasin qorli sirtlari,

Fahming yetsa, sen chaqmoqni hassa deb bilgin.

Qo‘ychivon oy – o‘dag‘aylab urar tog‘larga.

Yomg‘ir – osmon qo‘ylarining tabarruk suti.

Qorlar esa qo‘ylardan to‘kilgan junlar. [M.U, 7-8-b.]

Odatda, tashbeh san’ati to‘rt juzv orqali yuzaga keladi: *mushabbih (o‘xshatilayotgan narsa), mushabbihun bih (o‘xshayotgan narsa), vajhi shabih (o‘xshatish sababi), vositai tashbih (o‘xshatish vositasi)*. Shu unsurlarning qo‘llanishiga ko‘ra, tashbehning bir necha turlari farqlanadi. Tarkibida mushabbih va

⁶⁶ Куронов Д., Мамажонов З. Ўша луғат. – Б. 272.

mushabbihun bih ishtirok etgan o‘xshatish *tashbehi muyaqqad* (noaniq o‘xshatish) hisoblanadi. Yuqoridagi o‘xshatishlar aynan *tashbehi muyaqqad*dir.

Adibning mahorati shundaki, samoni betakror o‘xshatishlar bilan posbonning kasbi, dunyoqarashi, tafakkur olamiga hamohang tasvirlaydi. Posbon saroyni, podshohni qo‘riqlovchi, samoviy ilmga ega bo‘lmagan shaxs, ammo shoh, olim Ulug‘bek haqida tasavvurga ega. Shu bois muallif posbonni munajjim, olim Ulug‘bek shaxsiyatiga xos so‘zlatadi, osmonni *bahoriy o‘tloqqa*, yulduzlarni *qo‘y to‘dasiga*, bulutni *tog‘ning qorli cho‘qqilariga*, chaqmoqni *cho‘pon hassasiga*, oyni esa *to‘da boshi qo‘ychivonga* o‘xshatadi va tashbeh san‘ati asosida *samo va o‘tloq* manzarasini uyg‘unlikda chizadi: *go‘yo cho‘pon qo‘ylarni, qo‘ychivon oy esa yulduzlarni bir maqsad tomon yetaklagandek*. Kontekstdan anglashiladiki, oy bu – *Ulug‘bek*, yulduzlar esa *shogirdlaridir*.

Bu o‘xshatishlar paradigmasini quyidagicha ifodalash mumkin:

samo → *o‘tloq* → *saroy*;

cho‘pon → *oy* → *Ulug‘bek*;

chaqmoq → *hassa* → *adolat hassasi*;

bulut → *qorli cho‘qqi* → *shoh Ulug‘bekka xos viqor*;

yomg‘ir → *sut* → *mo‘l-ko‘llik*;

qor → *jun* → *yorug‘ kelajak*.

Dramaturg Ulug‘bekning saroy va samo ilmining sohibi, shohi ekanligini ham posbon nutqi orqali o‘xshatish san‘ati bilan xalqona milliy uslubda tasvirlaydi. Ko‘rinadiki, tabiat va jamiyatni uyg‘unlikda tasvirlash orqali falsafa, mantiq yaratish adib Shayxzodaga xos bo‘lgan xususiyatdir.

Maqsud Shayxzoda dramalarda taassurotni kuchaytirish, ta‘sirchan ifodalash, obrazli bo‘rttirish maqsadida mubolag‘a va uning turlarini ham fojialar sujetiga xos o‘rinli qo‘llaydi. “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasining bosh g‘oyasi vatan va xalqning hurligi uchun kurashligi bois undagi mubolag‘alarda ham shu mazmun ifodalangan. Masalan, adib Temur Malikning mard, jasur va yurt raqiblariga qarshi nafratini mubolag‘aning g‘ulu turi orqali obrazli tasvirlagan:

Boray desa kim yurtga tirik,

Yovni qirib yasasin ko‘prik. [J.M, 345-b.]

Adib dramatik asarlar yaratishda o‘ziga xos, ya‘ni shayxona mahorat sohibidir. U Ulug‘bek timsoliga nisbatan betakror epitetlardan foydalanadi. Masalan, Abdurazzoq nutqida:

Ammo hazrat Ulug‘bekday olim bir sulton

Iskandardan keyin taxtda o‘tirgan emas.

Fanning shohi, fazilatning podshohi erur. [M.U, 15-b.]

Kontekstdan anglashiladiki, Ulug‘bek nafaqat saroy mirzosi, balki fan, ahli donishlarning ham sultoni – *fanning shohidir*. *Hazrat, fazilatning podshohi* kabi epitetlarda uning oliynasab, hammaga birdek hush yoquvchi muhtaram zot ekanligi ifodalangan.

Muallif Ali Qushchi tarixiy timsolini ham epitet vositasida badiiy, obrazli tasvirlaydi:

Bu – shogirdim, Ali Qushchi, mahramim do‘stim,

Sizlar uchun olib kelgan esdalik – tuhfa. [M.U, 24-b.]

Adib Ali Qushchi timsolini, avvalo, Ulug‘bekning olim, falakkiyot ilmining shohi va arbobi ekanligini badiiy ifodalash uchun tragediya sujetiga olib kiradi va Ulug‘bek nutqidagi *shogirdim, mahramim do‘stim* kabi epitetlar vositasida esa ularning yaqinligini ta’sirchan tasvirlagan.

Maqsud Shayxzoda dramalarda salbiy bo‘yoqdor epitetlarni ham timsollar xarakteri va sajjiyasiga xos o‘rinli qo‘llaydi. Xususan, Chingizxon timsoliga nisbatan *qonli Chingiz* [J.M, 302-b.], *behayo bir gado* [J.M, 303-b.], *yalmog‘iz mo‘g‘ul* [J.M, 304-b.], *odamxo‘r nomard* [J.M,342-b.] kabi sifatlashlar, shuningdek, jangda yengilgan lashkarlar ruhini tasvirlovchi *pajmurda sarbozlar* [J.M, 314-b.], *uyqusiz Xo‘jand* [J.M, 317-b.] kabi badiiy sifatlashlar drama ta’sirchanligini oshirgan.

Bobning 2-bo‘limida **“Dramalardagi uslubiy vositalarning lingvopoetik tahlili”** yoritilgan. Muallif *takror bilan bog‘liq assonans, alliteratsiya, epifora va ellipsis, ritorik so‘roq, gradatsiya* kabi uslubiy vositalardan ham badiiy maqsadlarda mahorat bilan foydalangan.

Muallif ritorik so‘roq vositasida timsollar xarakteri, turli hissiy kommunikativ munosabatlarini ochiq, ta’sirchan ifodalashga erishgan:

Jaloliddin

Bu dunyoda onasiz tug‘ilgan kim bor?

Jon berganga jon bermoq mardlarga darkor!

Onamizning onasi bo‘lsa shu Vatan –

Ko‘rlik afzal bu yurtni asir ko‘rmoqdan. [J.M, 348-b.]

Muallif kontekstda *ona* va *vatan* leksemalarini bir xil mazmunda qo‘llaydi va *“Bu dunyoda onasiz tug‘ilgan kim bor?”* ritorik so‘rog‘i vositasida barcha insonni ona dunyoga keltirishini, ona, Vatan yagona va muqaddasligini, ular uchun qon to‘kish mardlar ishi ekanligini ta’sirchan ifodalaydi.

Muallif *“Mirzo Ulug‘bek”* tragediyasida Piri Zindoniy nutqida ritorik so‘roq namunalarini faol qo‘llash bilan uning o‘tmishini ta’sirchan ifodalashga erishgan:

Nega darkor? Sarguzashtlar, sarguzashtlarmish!

Men ularni aytgan bilan yoriydimi kun?

Yo la’nati zindon qulab kelarmi erklik?

Yo qaytadan men yosharib, jo‘ralar bilan –

Jumalikda yallaxonlik qilamanmi-a?

Podshohga insonlarni o‘ldirmoq oson!

Ammo, qani, ular kimni tiriltirgan? Hayhot! [M.U,160-b.]

Bobning **“Remarkalarning lingvopoetik xususiyatlari”** nomli 3-bo‘limida adibning remarka yaratish mahorati tahlil qilingan.

F.Babadjanov dramalarning lisoniy xususiyatlarini tahlilga tortar ekan, dramatik nutqni struktur jihatdan *muallif nutqi (remarka) va personajlar nutqi* ko‘rinishida ikki turga ajratadi⁶⁷.

Muallif nutqi – remarka yozuvchi mahoratining oynasi bo‘lib, asarda qiyofalar, ularning portretlari, ichki dunyosi, tabiat manzaralari, hammasini yozuvchining tili va

⁶⁷ Бабаджанов Ф. Ўзбек жаҳид драмаларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2002. – Б.93.

dilidan bayon qilinuvchi “hokimlikka” ega nutq⁶⁸. Remarkada asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi va hokazolar yoritiladi. G.Ikromova remarkalarni strukturaviy jihatdan *so‘z, birikma, gap, supersintaktik butunlik* kabi turlarga ajratgan⁶⁹.

Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidagi remarkalarda, ayniqsa, ramziy timsollarni yuksak mahorat bilan yaratdi. Asarda bir necha o‘rinda Amir Temur qo‘lida qilich bilan tasvirlanadi. Bunday qilich timsoli *kuch-qudrat, zo‘ravonlik, toj-u taxt* ramzi sifatida namoyon bo‘ladi: *Uning qiyofasi haybatli. Qo‘lidagi qilichini havoda o‘ynatib, qahqaha urib yuboradi.* [M.U, 211-b.] Qilich ramzi Amir Temur timsoliga viqor, dabdaba, haybat baxsh etgan.

Dramaning 5-parda 2-sahnasida esa shunday remarka beriladi: *Temur qilichin o‘ynatib, haybatli qahqahalar qo‘yib yuboradi. Shu payt birdan Temur qiyofasi yonida to‘satdan boshqa bir inson jussasi paydo bo‘lib qoladi. U qo‘lidagi bolg‘ani baland ko‘tarib Temur qilichiga uradi. Qilich Temurning qo‘lidan tushib ketadi. Shu asnoda birdan sahna orqasi yorishib ketishi bilan Temur yer tagiga cho‘kib ketadi. Tepalikda qo‘lida bolg‘a ko‘targan Piri Zindoniy turgani ko‘rinadi.* [M.U, 212-b.]

Demak, Amir Temur va Piri Zindoniyning xayoli bir-biri bilan to‘qnashadi. Bu to‘qnashuvda Piri Zindoniy qo‘lidagi bolg‘a bilan Amir Temurning qo‘liga uradi. Jahongirning qilichi qo‘lidan tushib ketadi, borliqni qoplab turgan qorong‘ilik tarqab, atrof yorishib ketadi, Temur yer tagiga cho‘kib ketadi, ya‘ni qabriga qaytadi.

Bunga Shuayib Qoraqosh quyidagicha xulosa beradi: “... sovet mafkurasining simvoli sifatida qo‘llanilgan bolg‘aning qilichni mag‘lub etishi va oxirgi pardadagi manzara, milliy tarix va milliy qahramonlarga yuklangan kuchli zarbadir”⁷⁰. M.Qo‘chqorova e‘tirof etganidek, “Haqiqatan ham tragediyada qilich – zo‘ravonlik, toj-taxt ramzi bo‘lsa, bolg‘a ishchi-dehqonlar, oddiy xalq ramzi sifatida aks ettirilgan”⁷¹.

Adibning mahorati shundaki, u asarda tabiat va jamiyatni, ya‘ni Ulug‘bek va saroy hayotini uyg‘unlikda tasvirlaydi. Bunda Ulug‘bekning shohligi va olimligiga mutanosib tarzda *fonus, oy, yulduz, osmon, qilich* ramzlaridan ham unumli foydalanadi: *Bir necha sipohi fonusni urib tushiradilar. O‘rtaga qorong‘ilik cho‘kadi.* [M.U, 250-b.]

Takrorlanmas tasviriy, uslubiy vositalar asarlarga obrazlilik, badiiylik, ekspressivlik va xalqona milliy ruh baxsh etgan hamda g‘oyani shakliy-mazmuniy jihatdan shayxona o‘ziga xos jilo va talqin etilishini ta‘minlagan.

⁶⁸ Имомова Г. Тирик миллий характерлар яратишда бадий нутқнинг роли: Фил. фан. номз. ... дис. – Тошкент, 1993. – Б.68.

⁶⁹ Ikromova G. Sharof Boshbekov dramalarining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – B.26.

⁷⁰ Şuayip Karakaş. Maksud Şeyxzase ve Mirza Ulug‘bek piyesi. Türkiyat türklük bilimi araştırmaları dergisi, Güz, 2010 sayı. 7. – S.47.

⁷¹ Қўчқорова М. Мақсуд Шайхзода ижодининг Туркияда ўрганилиши // Бадий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 208. Б. 203-210.

XULOSA

1. Badiiy asarlar, jumladan, dramalar lingvopoetik tahlilida ularning janri bilan bog‘liq shakliy va mazmuniy xususiyatlarini e‘tiborga olish samaradorlikni ta‘minlaydi. Shu jihatdan dramatik asarlarda dramatism, fojiviylilik va yumor-hajv ruhini, badiiy timsollar xarakterini ifodalovchi poetik aktuallashtirilgan tilning tasviriy, sintaktik-uslubiy vositalarni tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlari integratsiyasiga asoslangan shakl va mazmun, makon va zamon, nom va shaxs uyg‘unligi tamoyillarida tahlil qilish lozim.

2. Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” tragediyalari mavzuiy, g‘oyaviy-badiiy, til, uslub jihatdan o‘zbek dramaturgiyasining eng sara namunalari.

3. Adib jahon dramaturgiyasining an‘anaviy va ilg‘or tajribasini o‘zbek adabiyotiga olib kirdi. O‘zbek tili va adabiyotida ham til, mavzu, uslub jihatidan sara fojiviylilik asarlar yaratish mumkinligini isbotladi.

4. Maqsud Shayxzoda tarixiy fojialar yaratishda o‘ziga xos va betakror shayxona uslub sohibidir. Adib o‘zbek dramaturgiyasining sara namunalari “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi” tragediyalarini yaratishda har bir til birligidan, jumladan, antroponimik birliklar: ism va laqablardan ham mavzu, ham g‘oya va tasvirga olingan davrga mutanosib tarzda yuksak mahorat bilan foydalangan. Bu, albatta, asarning lingvopoetik mukammalligini ta‘minlagan.

5. Dramalarda Maqsud Shayxzodaning o‘ziga xos uslubi yaqqol sezilib turadi. Asarlar jo‘shqinlik va harorat bilan bitilgan, badiiy timsollar nutqida Shayxzodaga xos falsafiy teranlik, obrazlilik kuzatiladi.

6. Maqsud Shayxzoda yaratgan timsollar ismi, laqabida sohibining portreti namoyon. Har bir poetonim yuksak mahorat bilan shakl va ma‘no, nom va shaxs uyg‘unligida yaratilgan, badiiy-uslubiy sayqal topgan.

7. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasidagi bosh timsoldan tortib oddiy personajlarning nutqida ularning barchasini butun boricha ko‘rasiz, tasavvur qilasiz. Asardagi har bir timsol o‘ziga mos va xos, ya‘ni posbon posboncha, navkar navkarcha, sipohiy sipohiycha, ijod, ilm ahli falsafiy va ijodiy, bosh timsol Ulug‘bek esa shoh sifatida shohona, olim sifatida olimona fikrlaydi hamda so‘zlaydi. Bu asarga mazmunan sayqal bergan hikmatlarda ham yorqin ko‘rinadi.

8. Dramadagi badiiy timsollarga xos aforizmlar zamirida o‘ziga xos badiiy hukm, falsafiy xulosa yotadi. Shoir tomonidan “kashf etilgan” xalq maqollariga monand hikmatli so‘zlar asar ta‘sirchanligini, poetik salmoqdorligini ta‘minlagan.

9. Maqsud Shayxzoda til birliklari takroriga asoslangan alliteratsiya, assonans, anafora, epifora, rifma (qofiya) kabi uslubiy vositalardan va oq she‘r imkoniyatlaridan shayxona mahorat bilan unumli, o‘rinli foydalangan hamda uning lisoniy-badiiy imkoniyatlarini boyitgan.

10. Muallif ritorik so‘roq, ritorik xitob, murojaat shakli, inversiya, ellipsis, parallelizm kabi sintaktik vositalarning uslubiy, semantik-funksional imkoniyatlaridan mavzuga xos dramatism va fojiviylilikni yorqin ifodalashda samarali foydalangan.

Ilava2.4-jadval. Mirzo Ulug‘bekka nisbatan qo‘llangan murojaat shakllari.

№	Timsollar nutqida	Murojaat shakllari	Dramadagi sahifasi	Asardagi semantik xususiyati
1	Firuza	<i>valine'mat</i>	75; 42; 137; 246; 83; 86	<i>oliyhimmat, tirikligim sababchisi</i>
		<i>ustoz</i>	135	<i>hayot yo'lidagi ustoz</i>
			245	<i>ilm yo'lidagi ustoz</i>
			256	<i>sevimli yor, pir.</i>
2	Ali Qushchi	<i>A'lohazrat</i>	40	<i>oliy va ulug' zot; hurmatli zot</i>
		<i>Janob shahriyor</i>	40	<i>yuksak martabali podshoh</i>
		<i>valine'mat</i>	207	<i>oliyhimmat</i>
		<i>ustoz</i>	207	<i>pir; ota</i>
		<i>aziz muallim</i>	255	<i>barcha uchun sevimli, hurmatli ustoz</i>
		<i>davlatpanoh</i>	38	<i>xalq panohgohi</i>
3	Gavharshodbegim	<i>ulug' Mirzo</i>	119; 121	<i>ulug' hukmdorlar vorisi</i>
		<i>Mirzo</i>	120	<i>oliy martabali shoh va olim</i>
4	Abdullatif	<i>qiblagohim</i>	69; 76; 77	<i>panohgoh (ayyorlik mazmunida)</i>
		<i>buzrukvorim</i>	70; 92	<i>yagona yupanch</i>
		<i>shahriyori falakviqor hazrat</i>	180.	<i>oliy martabali shoh</i>
5	Piri Zindoni	<i>Mirzo Ulug'bek</i>	161	<i>ulug' hukmdor (kinoyali)</i>
		<i>Mirzo</i>	165	<i>hukmdor (zaharhanda)</i>
		<i>ulug' munajjim</i>	166	<i>astronom olim</i>
		<i>buyuk qabli inson</i>	166	<i>sahovatpesha, samimiy</i>
		<i>sohibi toj</i>	166	<i>saltanat egasi</i>
6	Hudaychi	<i>Shahriyori juvonbaxt, sulton Ulug'bek ibni sulton</i>	54	<i>toj-u taxt ko'rki tolesi baland sulton Ulug'bek</i>
		Devonbegi	<i>sulton</i>	12
	<i>hazrat shahriyor</i>		91	<i>ulug' hukmdor</i>
	Chin elchisi	<i>uy egasi</i>	19	<i>saltanat podshohi</i>
		Hind elchisi	<i>janob sulton</i>	19
	<i>shavkatmaob hukmdor</i>		19	<i>qudratli podshoh</i>
	Qozi Miskin	<i>hazrat shahriyor</i>	25	<i>Yuksak hukmdor</i>
		<i>janob sulton</i>	81	<i>hurmatli sulton (kinoyali)</i>
	Sayid Obid	<i>mavlon</i>	31	<i>hurmatli olim</i>
		<i>sulton</i>	130	<i>podshoh (kinoyali)</i>
Shayxulislom	<i>jahonpanoh</i>	138	<i>dunyo himoyachisi</i>	
7	Ota Murod	<i>qiblayi olam</i>	58	<i>yetti jahon qiblagohi</i>
		<i>hazrat</i>	59	<i>marhamatli zot</i>
		<i>davlatpanoh</i>	60	<i>panohgohim</i>
	Bobo Kayfi	<i>shafqatpanoh</i>	61; 154	<i>rahm-shafqatli himoyachi</i>

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/04.06.2021.Fil.76.04 AWARDING
ACADEMIC DEGREES AT NAMANGAN STATE UNIVERSITY**

NAMANGAN STATE UNIVERSITY

IKRAMOVA MUHTARAM BOTIRJON KIZI

**LINGUOPOETHIC FEATURES OF MAQSUD SHAYKHZODA'S
DRAMAS**

10.00.01 – Uzbek Language

ABSTRACT

**of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in PHILOLOGICAL
SCIENCES**

Namangan -2025

The theme of Doctoral (PhD) Dissertation was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.PhD/Fil4773

The dissertation was completed at Namangan State University.

Dissertation abstract in three languages (Uzbek, Russian, English) is available on the website of the Council (www.namsifl.uz) and “ZiyoNet” Information and Education portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Ulukov Nosirjon Muhammadaliyevich
Doctor of Philology (DSc), Professor

Official opponents:

Odilov Yorkinjon Rahmonaliyevich
Doctor of Philology (DSc), Professor
Xojaliyev Ismoil Tojiboievich
Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor

Leading organization:

Urganch State University

The dissertation defense will be held at the meeting of the Academic Council of Namangan State University under the number PhD.03/04.06.2021.Fil.76.04 on “_____” _____, 2025 at _____. (Address: 160107, Namangan city, Boburshoh street, house 161. Tel.: (+99869) 228-85-01; fax: (+99869) 228-85-02; e-mail: info@namdu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Namangan State University (registered under number _____). Address: 1601047, Namangan city, Boburshoh street, house 161.

Tel.: (+99869) 228-85-01).

The dissertation abstract was distributed on “_____” _____, 2025.
(2025 “_____” _____, _____ - digital registry report).

Z.Y.Sadikov

Chairman of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of
Philological Sciences (DSc), Professor

I.U.Darvishov

Scientific Secretary of the Scientific
Council awarding scientific degrees, Doctor of
Philosophy on Philological Sciences, Associate
Professor

F.I.Karimova

Chairman of the Scientific Seminar under
the Scientific Council awarding scientific
degrees, Doctor of Philological Sciences,
Associate Professor

INTRODUCTION

(doctoral (PhD) dissertation abstract)

The relevance and actuality of the dissertation topic. In recent years, modern linguistics such as cognitive linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, ethnolinguistics, linguoculturology and linguopoetics have been rapidly developing in world linguistics based on an anthropocentric approach to language research. Special attention was paid to the study of the text and its types, including the linguopoetic aspects of artistic texts. Research on linguopoetics, which is one of the important areas of text linguistics, focuses on the specific linguistic features of literary genres, the ability of creators to use the phonetic, lexical, morphemic, morphological, syntactic and methodological possibilities of the language, the development and improvement of the literary language, in particular, the artistic style. It has important scientific and practical value in studying issues such as contribution.

In world linguistics, artistic texts are considered an important object of the field of linguopoetics, because any artistic text is a linguistic, artistic landscape of the world, artistic speech, the linguistic uniqueness of its prose and poetic forms, the possibilities of poetic actualized language units and tools, and the stylistic skills of writers and poets. is an important source for drawing conclusions.

In the conditions of the new Uzbekistan, the development of the science of linguistics, the improvement of research in this direction, and the education of young people in the spirit of love for their mother tongue and motherland, national traditions and values, have become a priority. Therefore, as part of the measures to further improve the Uzbek language in our country, it is necessary to "initiate the study of modern methods of scientific schools of the Uzbek language in the higher education system, to identify and research scientific problems related to the development prospects of the language" such tasks are defined. Development and improvement of Uzbek linguopoetics is one of these tasks. Indeed, the further development of our national language, which is the basis of our spirituality, the restoration of the national-spiritual values of our people formed over the centuries, and the study of the spiritual heritage created by our ancestors are relevant for today.

Although there are some studies in Uzbek linguistics dedicated to the linguopoetic study of the language and style of the works of certain artists, the dramas of Maksud Shaykhzada have not been studied linguistically.

In the development of Uzbek literature and our literary language, Maksud Shaykhzada's creative path has a special place. Shaykhzada's poems and dramas on various topics vividly reflect the hidden possibilities of the Uzbek language, the unique linguopoetic features of language units, charm, colorfulness, expressiveness, emotional-expressiveness. From this point of view, the linguopoetic study of Maksud Shaykhzada's dramas is also of great scientific and practical importance.

The Law of the Republic of Uzbekistan No. 177-1 of December 21, 1995 adopted in a new version "On the State Language" and the Law of the Cabinet of Ministers No. 311 of September 10, 1996 "On the State Language of the Republic of Uzbekistan" requirements of the Decision On making relevant changes to the state program aimed at increasing No. PF-4947 dated February 7, 2017 "On the

strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan”, 2019

